

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

DIALEKTAL LUG'ATDA "TIL-SHAXS-MUSHTARAKLIK" BELGILASH TIZIMI

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich

Samarqand davlat pedagogika instituti, dotsent.

e-mail: shernormuminov088@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-1880-5085>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek izohli va dialektal lug'atlaridagi leksikografik belgilar tizimi tahlil qilinadi. Lisoniy birlik ortidagi shaxs omilini qayd etuvchi yangi apparat ishlab chiqish masalalari muhokama qilingan. Shuningdek, "til va shaxs mushtarakligi" prinsipi asosida til-shaxs-mushtaraklik uch qatlamli belgilar modeli taklif etiladi. Modelning imkoniyatlari dala materialidan tanlangan dialektal birliklar misolida yoritiladi.

Kalit so'zlar: dialektal leksikografiya, leksikografik belgi (pomet), dialektal lisoniy shaxs, til va shaxs mushtarakligi, sotsiopragmatik parametr, informant pasporti, lug'at mikrostrukturalari.

СИСТЕМА МАРКИРОВАНИЯ «ЯЗЫК-ЛИЧНОСТЬ-ОБЩНОСТЬ» В ДИАЛЕКТНОМ СЛОВАРЕ

Нормунинов Шерзод Туйчиевич

Самаркандский государственный педагогический институт, доцент.

Аннотация.

В данной статье анализируется система лексикографических знаков в узбекском толковом и диалектном словарях. Обсуждались вопросы разработки нового аппарата, фиксирующего личностный фактор языкового единства. Также предлагается трехслойная модель признаков «язык-личность-общность», основанная на принципе «общности языка и личности». Возможности модели иллюстрируются на примере диалектных единиц, отобранных из материалов полевых исследований.

Ключевые слова: диалектная лексикография, лексикографическая помета, диалектная языковая личность, единство языка и личности, социопрагматический параметр, паспорт информанта, микроструктура словаря.

THE LANGUAGE-PERSON UNITY ANNOTATION SYSTEM IN A DIALECT DICTIONARY

Normo'minov Sherzod To'ychiyevich

Samarkand State Pedagogical Institute, Associate Professor.

Abstract.

This article analyzes the system of lexicographic signs in Uzbek explanatory and dialect dictionaries. The issues of developing a new device that captures the personal factor of linguistic unity were discussed. A three-layer model of "language-personality-community" features based on the principle of "common language and personality" is also proposed. The model's capabilities are illustrated by the example of dialect units selected from field research materials.

Keywords: dialectal lexicography, lexicographic label, dialectal linguistic personality, unity of language and personality, sociopragmatic parameter, informant passport, dictionary microstructure.

Kirish. Lug'at maqolasidagi qisqartma belgi (pomet) lisoniy birlikning lug'at korpusidagi maqomini, qo'llanish doirasi va uslubi-funksional xususiyatini qayd etuvchi mikrotizim sanaladi. O'zbek leksikografiya an'anasida bu apparat izohli va dialektal lug'atlarda belgilangan tartibda shakllangan. Jumladan, izohli lug'atlarda belgi so'zning adabiy me'yorga nisbatan o'rnini, dialektal lug'atlarda uning hududiy mansubligi va sheva manbasini ko'rsatadi. Biroq har ikki tipda ham belgilash tizimi birlikni asosan til hodisasi sifatida qayd etib, uning ortidagi so'zlovchining yoshi, jinsi, ijtimoiy maqomi va nutqiy niyati e'tibordan chetda qoladi. Ushbu bo'shliq zamonaviy antropotsentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan leksikografik apparatni qayta ko'rib chiqish dolzarbligini belgilaydi.

Izohli lug'atdagi belgilash tizimini besh jildlik ***O'zbek tilining izohli lug'ati***ning birinchi jildi misolida kuzatish mumkin. Tuzuvchilar ***uslubi belgi***ni grammatik xarakteristikadan tashqari barcha ko'rsatkichlarni qamrovchi vosita sifatida talqin qiladi va apparat tarkibiga **bol., mahs., poet., kt., s.t., folk., x.-q., shv., esk., haqr.** kabi qisqartmalarni kiritadi [1]. Bu ro'yxat o'zbek leksikografiyasidagi uslubi-funksional belgilashning amaldagi doirasini to'liq aks ettiradi. Ammo shevaga oid belgi qo'yilgan birlik lug'atda faqat denotativ ma'no doirasida, predmetning

maishiy yoki etnografik vazifasi orqali beriladi. Uni qaysi yosh, jins yoki ijtimoiy vaziyatda qo'llash haqida ma'lumot keltirilmaydi. Bunday yondashuv lug'atning umumxalq adabiy me'yor manbai sifatidagi tabiiy mezonidan kelib chiqadi. Unda so'zning umumiste'moldagi, ko'pchilikka tushunarli ma'nosi qayd etiladi [1]. Natijada birlikning nutqiy vaziyat va ijtimoiy kontekst bilan bog'liq qatlamlari lug'at tarkibidan tashqarida qoladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Dialektal lug'atdagi belgilash izohli lug'at modelidan farqli tarzda beriladi. Sh. Sh. Shoabdurahmonovning "O'zbek xalq shevalari lug'ati"da (1971) apparat hududiy lokalizatsiyaga qaratilgan bo'lib, bosh so'zdan keyin qavs ichida **(Toshkent), (Buxoro), (Qashqadaryo)** singari geografik nomlar leksikografik belgi vazifasini bajaradi [2]. Masalan, **qichima ((O'zgan) o'ynoqi, buzuq ayol "распутная женщина")** maqolasida birlikning adabiy muqobili, tarqalish hududi, ruscha tarjimasi va gap tarkibidagi qo'llanishi aks etadi [2]. Biroq bu yerda ham so'zni qo'llovchi shaxsning ijtimoiy mavqei, yoshi yoki kasbi qayd etilmaydi. Dialektal lug'at tuzish prinsiplarini asoslagan F. A. Abdullayev material yig'ishda asosan hududiy va leksik mezonlarga tayangan [3]. A. Ishayev esa lug'at maqolasining mikrostrukturasini bosh so'z, transkripsiya, hududiy ko'rsatkich, adabiy muqobil, ruscha tarjima va illyustrativ kontekst tartibida izchil belgilagan [4]. Har ikki yondashuvda ham lisoniy birlikning sotsiolingvistik parametrlari e'tiborga olinmagan.

Ikki tipdagi lug'atning belgilash tizimi qiyoslanganda umumiy qolip ko'zga tashlanadi. Har ikkisi so'zning hududini, uslubiy qatlamini yoki kasb-hunar sohasini ko'rsatsa-da, birlik ortidagi informantning yoshi, jinsi va nutqiy vaziyati qayd etilmaydi. T. Enazarov ta'kidlaganidek, an'anaviy dialektal lug'atlarda asosan sof leksik va qisman fonetik o'zgargan birliklar o'rganilib, boshqa dialektal xususiyatlar lug'aviy ifodasini topmagan [5]. Qayd etilmaydigan parametrlarni, birlik sohibining yosh ko'rsatkichi, jinsi, kasbiy faolligi va birlikning pragmatik yo'nalishi (maslahat, ogohlantirish, evfemizm va boshqalar) kabi to'rt guruhga ajratishimiz mumkin. Vaholanki, X. Doniyorov qipchoq dialektlari leksikasini o'rganar ekan, sheva lug'at tarkibining arxaik, faol va yangi qatlamlarga bo'linishi bevosita informantlarning yosh ierarxiyasiga bog'liqligini qayd etgan [6]. Shunday ekan, yosh omili sheva leksikasining tarixiy o'zgarishini aniqlashdagi metodologik asos bo'la oladi.

Dala amaliyotlarida to'plagan materiallarimizda buni tahlil qilib ko'ramiz. Masalan, **biqtirma** (qozonda go'sht to'ldirib tayyorlanadigan taom) leksemasi Jizzax viloyati G'allaorol tumanida 58 yoshli erkak dehqon-chorvador nutqidan, mehmonni kutib olishda yozib olingan. Amaldagi apparatda bu so'z faqat maxsus taom turi sifatida geografik jihatdan qayd etilishi mumkin. Birlik ortidagi shaxsning yoshi, kasbi va mehmondo'stlik kodi esa lug'at maqolasidan butunlay tushib qoladi. Shu bois foydalanuvchi birlikning grammatik xususiyati va denotatsiyasini bilsa-da, uni qaysi pragmatik registrda qo'llashni o'zi belgilashga majbur bo'ladi. Bu holat dialektal leksikaning umumxalq tiliga va badiiy amaliyotga o'tishini qiyinlashtiradi.

Muammoning yechimi leksikografik apparatni antropotsentrik paradigma yo'nalishida shakllantirishni taqozo etadi. Buning uchun xalqaro tajribadagi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga e'tibor qaratish joiz. Rus tilshunosligida L. P. Krysinning ijtimoiy belgilanganlik konsepsiyasi lisoniy birliklarning ijtimoiy shartlanishi yuqori darajada leksika va frazeologiyada namoyon bo'lishini asoslaydi [7]. Biroq an'anaviy rus leksikografiyasida sotsial belgilar guruh-genetik prinsipga tayanib, shaxsning individual parametrlari lug'at maqolasidan chetda qoladi.

G'arb amaliyotida qo'llanish belgilari (**usage labels**) tizimi ishlangan. B. T. S. Atkins va M. Rundell tizimlashtirgan apparat sakkiz asosiy turkumni, ya'ni mavzu sohasi (**domain**), hudud (**region**), uslubiy registr (**register**), uslub (**style**), tarixiy mansublik (**time**), sleng va argo (**slang, jargon**), munosabat-baholash (**attitude**) hamda qo'pol-haqorat birliklari (**offensive**)ni qamrab oladi. Bunda munosabat-baholash belgisi so'zlovchining aksiologik pozitsiyasini, qo'pol-haqorat ko'rsatkichi esa pragmatik chegaralarni qisman aks ettiradi [8]. R. R. K. Hartmann leksikografiya va lug'at tadqiqini muvofiqlashtirib, apparatni foydalanuvchi ehtiyojlari asosida loyihalash prinsiplarini asoslaydi [9]. Slavyan an'anasidagi ko'p jildli akademik shevalar lug'atlari har bir maqolada hududiy lokalizatsiyani manba (ekspeditsiya, yil, informant) bilan birga berib, informant pasportini mikrostrukturaga qisman olib kirgan. Ammo bu ma'lumotlar ko'proq materialning tarixiy-geografik manbaini tasdiqlash bilan cheklanib, sotsiopragmatik tahlilning amaliy vositasiga aylanmagan. Ko'rinadiki, hech bir an'anada dialektal birlik ortidagi shaxs hududiy, ijtimoiy, lisoniy va pragmatik parametrlarning yaxlit sintezi sifatida lug'at apparatiga integratsiyalanmagan.

Yangi belgilash tizimida Y. N. Karaulovning lisoniy shaxs nazariyasiga asoslansak bo'ladi. Olim lisoniy shaxs strukturasini verbal-semantik sath (shaxs leksikoni va grammatik bilimlari), lingvokognitiv sath (shaxs tezaurusida muhrlangan "**olam manzarasi**") va motivatsion sath (shaxsning faoliyat-kommunikativ ehtiyojlari, maqsad va intensiyalari) kabi uch sathdan iborat deb belgilaydi [10]. Dialektal materialga moslashtirilganda bu model hududiy-lisoniy, kognitiv-lingvistik va ijtimoiy-pragmatik o'lchamlar tarzida talqin etiladi. U lug'at maqolasi birlikning hududiy-uslubiy mansubligi bilan bir qatorda uning sohibi ongidagi uch qatlamni ham aks ettirishi lozimligiga metodologik asos yaratadi.

Sath nazariyasi til tizimini xronologik jihatdan tahlil qilishga imkon bersa-da, lug'at maqolasiga nutqiy faoliyat o'lchamini olib kirish zaruratini tug'diradi. Bu zaruriyatni Sh. Safarovning pragmalingvistik konsepsiyasi orqali bartaraf etish mumkin. Olim lison va nutqiy faoliyatning ontologik jihatdan bir-birini takrorlamasligini, shu bois ularni tahlil qilishda turli metodlar zarurligini asoslaydi [11]. An'anaviy lug'at tilga tizim sifatida yondashib, har bir birlikni turg'un hodisa deb belgilaydi. Pragmalingvistik yo'nalish esa birlikni faoliyat bo'lagi sifatida, kim, qaysi vaziyatda va qanday niyat bilan qo'llagani doirasida talqin etadi. Ushbu empirik o'lchamni V. I. Karasikning diskurs-konseptual yondashuvi ham to'ldiradi. Olim shaxs, unga xos konseptlar va diskurs tiplarini o'zaro bog'liqlikda o'rganishni taklif etib, "**shaxs – konseptlar – diskurs**" uzviyligini shakllantiradi [12]. Karasik formulasi Karaulovning vertikal sathlariga gorizontol o'qni ulaydi va nazariy qarashlarni amaliy tahlil dasturiga aylantiradi.

Uch konsepsiyaning o'zaro bog'lanishi Karaulovning vertikal sathlariga Karasik qayd etgan gorizontol "**shaxs –**

konsept – diskurs” o‘qini va Kysin taklif etgan ijtimoiy parametrlarni bog‘laydi. Natijada nazariy qarashlar amaliy tahlil uchun 18 pozitsiyali parametrlar matritsasi shaklida tizimlashtiriladi. Matritsa to‘rt guruhni parallel chiziq sifatida belgilaydi. Hududiy guruh lahjaviy mansublik va fonetik-leksik-morfologik markerlarni, ijtimoiy guruh yosh, jins, kasbiy mavqe va ma‘lumot darajasini, lisoniy guruh olmoshlar tizimi, buyruq paradigmasi va konseptual yadrolarni, pragmatik guruh esa moslashish jadalligi, dominant yo‘nalish, kommunikativ rol va diskurs tipini qamrab oladi. Shu tariqa dialektal lisoniy shaxs amaliy tahlil obyektiga aylanadi.

Aniqlangan leksikografik kamchiliklar, xalqaro tajribaning cheklavlari va Karaulov-Safarov-Karasik konsepsiyalari yaxlit qatlamda birlashganda, dialektal lug‘at maqolasini bir o‘lchovli pomet tizimidan ko‘p qatlamli, shaxs markazli apparatga aylantirishning nazariy asosi yuzaga keladi. Shu asosda har bir dialektal birlik lug‘at maqolasida **til-shaxs-mushtaraklik** formulasi orqali tavsiflanadigan uch qatlamli model taklif etiladi.

Til qatlami birlikning hududiy-lahjaviy mansubligini tartibga soladi. U an’anaviy **Far., Tosh., Sam.** belgilariga tayangani holda bir o‘lchovli ko‘rsatishdan ko‘p o‘lchovli aniqlashtirishga o‘tadi va makro-koordinat (lahja kodi – **qrl., qpch., qrl.qpch.**) va mikro-koordinat (viloyat kodi – **Sam., Jizz., Qash., Surx., Bux., Tosh., Sirdr.**) belgilari orqali ifodalanadi. Tuman, mahalla, qishloq aniqligi esa qo‘shimcha belgi bilan kiritiladi. Masalan, qarluq lahjasiga mansub, Samarqand shahar nutqida faol birlik **qrl. Sam. shh.**, qipchoq lahjasining Jizzax dasht shakli esa **qpch. Jizz. For.** tarzida aniqlashtiriladi. Bu yondashuv N. Rajabov va A. Ishayev asoslagan hududiy qayd etish tamoyillariga tayanib [4; 13], sheva birligini muayyan areal yadrogga bog‘lash va uning tahliliy pasportini yaratish imkonini beradi.

Shaxs qatlami birlik ortidagi sheva sohibining demografik-ijtimoiy qiyofasini qayd etadi va to‘rt parametrdan tashkil topadi: yosh guruhi (**20±, 30±, 40±, 60+**), jins (**erk., ayl., univ.**), kasb-mavqe (**dehq., chorv., hunarm., zyl., talab., uy.bek., harb.**) hamda ma‘lumot darajasi (**boshl., o‘rt., o.t.**). Bu ko‘rsatkichlar olmoshlar tizimi, hurmat munosabati va buyruq paradigmasi kabi lisoniy markerlar bilan boyitiladi. Qatlamning konseptual asosini L. P. Kysin ishlab chiqqan sotsiolingvistik portretlash metodologiyasi tashkil etadi. Olim ijtimoiy guruh nutqini aniqlovchi farqlovchi belgilar majmuasini taklif etgan [14]. Yondashuv N. Mahmudovning antropotsentrik tamoyiliga, tilning inson shaxsini shakllantiruvchi bosh unsur ekaniga asoslanadi [15] va lug‘at maqolasi til hodisasi bilan birga uning ortidagi inson qiyofasini ham aks ettirishi shartligini anglatadi.

Bu o‘rinda **“mushtaraklik”** atamasi ikki darajada talqin qilinadi. Umumnazariy darajada u til bilan shaxsning o‘zaro birikuvini ifodalaydi, model darajasida esa shu birikuvning muayyan nutqiy vaziyatdagi pragmatik voqelanishini bildiradi. Uchinchi qatlam aynan shu voqelanishni, birlikning muloqotdagi vazifasi, ijtimoiy qadri va tarixiy holatini qayd etadi. Mushtaraklik qatlami birlikning kommunikativ vaziyatdagi pragmatik vazifasini belgilaydi va uch yo‘nalishni qamrab oladi: pragmatik vazifa (**aktiv, evf., disf., hurm., tabu, poet., nostalji**), ijtimoiy maqom (**prest., neyt., stig.**) va diaxron holat (**aktiv, yo‘qol.bor., arx.**), shuningdek diskursiv markerlar (kommunikativ ramka, ekspressiv bo‘yoq). Bu qatlamda Safarovning lison-nutq tafovuti amaliy tamoyilga aylanadi. Apparat birlikning tizimiy o‘rnini emas, jonli muloqotdagi pragmatik aksini ham qayd etadi. Uch qatlam Karaulovning lisoniy shaxs modeli sathlariga evristik moslashuvi asosida shakllantirilgan. Agar Karaulov modeli lisoniy shaxsning ichki tuzilishini (leksikon, tezaurus, motivatsion tizim) tavsiflasa, taklif etilayotgan model birlik va uning sohibini tashqi hududiy hamda ijtimoiy-pragmatik koordinatalar kesimida tavsiflaydi. Shu bois, shartli muvofiqlik doirasida Karaulovning verbal-semantik sathi til qatlamiga, lingvokognitiv sathi shaxs qatlamiga, motivatsion sathi esa mushtaraklik qatlamiga moslashtiriladi.

Muhokama.

Lisoniy guruhning murakkab parametri hisoblangan konseptual yadrolar dialektal birlikning kognitiv mansubligini aks ettiradi. Ular til qatlami orqali hududiy konseptosferaga (masalan, cho‘l-makon konsepti yoki dehqonchilik freymi), shaxs qatlami orqali kasbiy-yoshli tizimga (chorvachilik leksikoni, kayvonilik tushunchasi), mushtaraklik qatlami orqali pragmatik konseptosferaga (motam, mehmondo‘stlik yoki andisha diskursi) bog‘lanadi. Shu tariqa uch qatlam yagona mikrostruktura sifatida amal qilib, birlikni hududi, sohibi va pragmatik vazifasi birligida tavsiflaydi.

1-jadval. Til-shaxs-mushtaraklik modelining qatlamlari va asosiy kodlari

QATLAM	KOORDINAT	ASOSIY KODLAR
Til	hududiy-lahjaviy	<i>Lahja: qrl., qpch., qrl.qpch. / Viloyat: Sam., Jizz., Qash., Surx., Bux., Tosh., Sirdr. / tuman - qo‘shimcha belgi</i>
Shaxs	demografik-ijtimoiy	<i>Yosh: 20±, 30±, 40±, 60+ / Jins: erk., ayl., univ. / Kasb: dehq., chorv., hunarm., zyl., talab., uy.bek., harb. / Ma‘lumot: boshl., o‘rt., o.t.</i>
Mushtaraklik	pragmatik	<i>Vazifa: aktiv, evf., disf., hurm., tabu, poet., nostalji / Maqom: prest., neyt., stig. / Diaxron: aktiv, yo‘qol.bor., arx.</i>

Modelning amaliy imkoniyati dala materialidagi birliklarni uch qatlam bo‘yicha tavsiflash va an’anaviy format bilan qiyoslash orqali namoyon bo‘ladi. Har bir birlik uchun avval denotativ ma‘no va muloqot konteksti keltiriladi, so‘ng til, shaxs hamda mushtaraklik ko‘rsatkichlari informant pasporti va birlikning kommunikativ voqelanishidan kelib chiqib belgilanadi.

Kulchatoy leksemasi (xamirdan tayyorlanadigan, beshbarmoq turidagi taom) Jizzax viloyati Baxmal tumanida 69 yoshli nafaqadagi erkak o‘qituvchi nutqidan qayd etilgan va o‘tmishni qo‘msash diskursida qo‘llangan. Informant taomni ilgari ayollar tayyorlaganini, hozirgi avlod esa tayyor mahsulotni afzal ko‘rishini g‘amgin ohangda bayon qiladi. Model uni quyidagicha aks ettiradi: **kulchatoy [qpch. | Jizz. Baxm. Chibor] [60+ | erk. | zyl. | o.t.] [nostalji | neyt. | yo‘qol.bor.]** — beshbarmoq turidagi an’anaviy taom. Bu yerda **nostalji** belgisi birlikning avlodlararo hamda gender-mehnat kodini ifodalovchi pragmatik vazifasini qayd etadi.

Bandalikni bajo keltirdi iborasi (denotativ ma'nosi "vafot etdi") Jizzax viloyati Forish tumanida 62 yoshli erkak o'qituvchi nutqidan yozib olingan. Ibora o'lim tushunchasini diniy-falsafiy konsept orqali yumshatadi va motam diskursida faol qo'llaniladi. Yangi modelda maqola quyidagi shaklga keladi: **bandalikni bajo keltirdi [qrl.qpch. | Jizz. Forish] [60+ | erk. | zyl. | o.t.] [evf. | prest. | aktiv]** — vafot etdi, o'limni diniy-falsafiy konsept orqali yumshatuvchi evfemistik formula.

Otasi leksemasi onomastik taqiqning namunasi bo'lib, Sirdaryo viloyati Boyovut tumanida 64 yoshli uy bekasi nutqida qayd etilgan. Ayol erining ismini bevosita aytish o'rniga farzandga bog'liqlik orqali (bolasining otasi) murojaat qiladi. Model buni quyidagicha tavsiflaydi: **otasi [qrl.qpch. | Sirdr. Boyov.] [60+ | ayl. | uy.bek. | boshl./o'rt.] [tabu-evf. | prest. | aktiv]** — er, ayolning erining ismini aytmaslik tabusi sharoitida farzandga tegishlilik orqali nominatsiya. Bunday murojaat shakli zamonaviy qishloq oilalarida hozirgacha saqlanmoqda.

Jondor nominatsiyasi Surxondaryo viloyati Boysun tumanida 82 yoshli chorvador nutqida qayd etilgan. Mifologik e'tiqodga ko'ra, hayvon nomini ochiq aytish o'rniga umumlashtiruvchi "**jonli mavjudot**" ma'nosidagi birlik qo'llaniladi. Model buni quyidagicha aks ettiradi: **jondor [qpch. | Surx. Boys.] [80+ | erk. | chorv. | boshl.] [tabu-evf. | prest. | yo'qol.bor.]** — bo'ri, xavfli hayvonni ochiq nomlashdan saqlanish maqsadida shakllangan evfemistik nominatsiya. **Yo'qol.bor.** belgisi birlikning zamonaviy ta'lim olgan yosh avlod nutqida iste'moldan chiqib borayotganini ko'rsatadi.

Natijalar. An'anaviy lug'atda bu birliklar faqat hududiy belgi va denotativ izoh bilan cheklanadi. Masalan, "kulchatoy (Jizzax) beshbarmoq, yassi xamirdan tayyorlangan taom". An'anaviy shakl so'zni kim, qaysi vaziyatda va qanday pragmatik bo'yoq bilan qo'llashini ochiq qoldiradi. Taklif etilayotgan modelda esa har bir birlik tahliliy pasport sifatida shakllanib, tilning hududiy koordinati, sohibining ijtimoiy qiyofasi va so'zning pragmatik aksini maqolada birlashtiradi. Model an'anaviy shaklni rad etmaydi. Far., Tosh., Sam. belgilar til qatlamida saqlanadi va kengaytiriladi, shaxs hamda mushtaraklik qatlamlari mavjud tizimga yangi tahliliy o'lchamlar qo'shadi.

Modelning amaliyotga tatbiqi lug'at tuzuvchilar, dialektologlar va korpus loyihalari oldiga aniq talablarni qo'yadi. Leksikograf har bir birlikni hududiy belgi bilan cheklamay, shaxs va mushtaraklik ko'rsatkichlari bilan uyg'unlikda qayd etishi, dala tadqiqotida esa to'liq informant pasportini (yosh, jins, ijtimoiy mavqe, ma'lumot) shakllantirishi lozim. Dialektolog informant tanlovida differensial prinsipga amal qilib, har bir hududda turli yosh, jins va kasb vakillarini qamrashi, rasmiy savol-javob o'rniga erkin biografik suhbat va ishtirokchi kuzatuvdan foydalanishi kerak. Zero rasmiy muhitda so'zlovchi o'z nutqini adabiy me'yorga moslashtirib, jonli sheva xususiyatini o'zgartiradi. Korpus tilshunosligida esa uch qatlamli struktura bevosita raqamli annotatsiyaga har bir birlik **[TIL | SHAXS | MUSHTARAKLIK]** tarzida teglanadigan metama'lumotga ko'chiriladi va qidiruvni hududiy, ijtimoiy hamda pragmatik koordinatlar bo'yicha foydali qiladi.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan **til-shaxs-mushtaraklik** modeli an'anaviy o'zbek dialektal leksikografiyasining bir o'lchovli belgilash tizimini ko'p o'lchovli, shaxs markazli apparatga aylantiradi. Tahlil qilingan material 20 yoshli talabadan 82 yoshli chorvadorgacha bo'lgan avlodlarni qamragani sababli model keksa avlod an'anaviy leksikasini ham, yoshlar muhitidagi zamonaviy jargonni ham bir mezon asosida tavsiflaydi. N. Mahmudov ta'kidlaganidek, tadqiqotchi vazifasi sheva birliklarini kataloglash bilan cheklanmay, so'zlovchining "olam manzarasi"ni har bir lisoniy unsur orqali qayta tiklashdan iborat [15]. Shu ma'noda model "**til va shaxs mushtarakligi**" prinsipini leksikografik mikrostruktura darajasida amaliy formula sifatida gavdalandiradi. Har bir maqolani bunday ko'p qatlamli apparat bilan ta'minlash sezilarli mehnat talab etgani bois, model birinchi navbatda to'liq hajmli an'anaviy lug'at uchun emas, tanlangan dialektal korpus va raqamli leksikografik platformalar uchun mo'ljallanadi. Keyingi izlanishlar uchun modelni izohli va dialektal lug'atlarning kengroq korpusida sinash, uni raqamli leksikografik platformalarga integratsiyalash hamda dialektal lug'at maqolasining sotsiokognitiv arxitekturasini o'rganish istiqbolli yo'nalishlar sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. J. I. A-B / mas'ul muharrir A. Madvaliyev. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
2. O'zbek xalq shevalari lug'ati / mas'ul muharrir Sh. Shoabdurahmonov. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1971. – 407 b.
3. Abdullayev F. Dialektal lug'at tuzish prinsiplari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – 1966. – No. 2.
4. Ishayev A. O'zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 1990. – 140 b.
5. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsion Ziyo, 2020. – 152 b.
6. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.
7. Крысин Л. П. Социальная маркированность языковых единиц // Очерки по социолингвистике. – Москва: Флинта; Наука, 2017. – С. 26–42.
8. Atkins B. T. S., Rundell M. The Oxford Guide to Practical Lexicography. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 540 p.
9. Hartmann R. R. K. Teaching and Researching Lexicography. – London; New York: Routledge, 2016. – 224 p.
10. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – 7-е изд. – Москва: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008. – 318 b.
12. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
13. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 304 b.
14. Крысин Л. П. Социальная маркированность языковых единиц // Вопросы языкознания. – 2000. – № 4. – С. 26–42.
15. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – 176 b.